

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING “BAHTIYOR OILA” ASARIDA OILA KONSEPTINING TAHLILI

Artikova Muslimaxon G'ayratjon qizi

Qo'qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila” asarida oila konseptining tahliliga oid ayrim fikr mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek maqolada, “Bahtiyor oila” asarida oilaviy munosabatlar va jamiyat munosabatlariga oid ayrim fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Oila konsepti, rivojlanish, oilaviy munosabatlar, muloqot, madaniyat, tahlil, uslub.

АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ СЕМЬИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «СЧАСТЛИВАЯ СЕМЬЯ» ШЕЙХА МУХАММАДА САДИКА МУХАММАДА ЮСУФА

Артыкова Муслимахон Гайратжон кизи.

базовый докторант Кокан ГПИ.

Абстрактный. В данной статье представлены некоторые комментарии к анализу понятия семьи в произведении шейха Мухаммада Сади́ка Мухаммада Юсуфа «Счастливая семья». Также в статье «Счастливая семья» изложены некоторые мнения о семейных и общественных отношениях.

Ключевые слова. Понятие семьи, развитие, семейные отношения, общение, культура, анализ, стиль.

ANALYSIS OF THE CONCEPT OF FAMILY IN THE WORK “THE HAPPY FAMILY” BY SHEIKH MUHAMMAD SADIQ MUHAMMAD YUSUF

Artikova Muslimakhon Ghairatjon kizi

doctoral student of Kokan SPI

Abstract. In this article, some comments on the analysis of the concept of family in the work “The happy family” by Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf are

presented. Also, in the article, “The happy family” some opinions about family relations and social relations are described.

Keywords. Family concept, development, family relations, communication, culture, analysis, style.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Bahtiyor oila” asarida oilaviy munosabatlar, erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar haqida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tilgan. Avvalo, oila va uning baxti, saodati haqida so‘z yuritishdan oldin insonning yaratilishidan ko‘zlangan maqsadlarga nazar solish, ayniqsa, nima uchun inson erkak va ayol qilib, juft qilib yaratildi, degan savolga javob axtarish lozim bo‘ladi. Shu ma’noda Quroni Karimga yuzlansak, unda insonning juft qilib yaratilishi haqida bir qancha oyatlar nozil bo‘lganini ko‘ramiz. «Fotir» surasida Alloh taolo shunday deb marhamat qiladi: «Alloh sizlarni tuproqdan, so‘ngra nutfadan yaratib, keyin juft-juft qilib qo‘ydi» (11-oyat).[1.B.11] Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki, oilaviy munosabatlar aynan erkak va ayol munosabatlariga asoslanishi lozim. Bugungi globallashtirish jarayonida turli xil madaniyatimizga yot g‘oyalarning kirib kelishi va ularning yoshlar ongiga ta’siri natijasida milliy madaniyatimizga yot bo‘lgan bir jinsli nigoh, LGB kabi buzuvchi targ‘ib qiluvchi g‘oyalar afsuski jamiyatimizda uchrab turibti. Shu asnodan ham mazkur asar tahlili har qachongidanda dolzarblik kasb etmoqda. Oilaviy munosabatlarning boshlanishi bevosita nigohdir. «Nikoh» so‘zi lug‘atda «qo‘shilish», «jamlanish», «yaqinlashish» ma’nolarini anglatadi. Shariatda esa: «Nikoh bahralanish egaligini hosil qiluvchi bog‘lanishdir». Muqaddas islom dinimizda ham nigohning sofliigi muhim ahamiyatga ega. Shaxsning “Bahtiyor oila” asarida nigoh hususida quyidagilar bayon etiladi:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: «Ey yoshlar jamoasi, sizdan kim nikohga qodir bo‘lsa, uylansin. Albatta, u ko‘zni to‘suvi va farjni saqlovchidir. Kim qodir bo‘lmasa, ro‘zani lozim tutsin, bu uning uchun bichilishdir», deganlarini eshitdim». Ushbu hadisi sharifdagi «nikohga qodir bo‘lsa», deb tarjima qilingan ibora arabchada

«boa» deyilib, moddiy, ma'naviy va jismoniy jihatdan nikohga qodirlik ma'nosini anglatadi. Demak, shu ma'nodagi qudratga ega bo'lgan har bir musulmon uyli-joyli, oilali bo'lishga harakat qilmog'i lozim. Agar nikohga moddiy yoki ma'naviy jihatdan qudrati yetmagan, sarf-xarajatni ko'tara olmaydigan yoki uylansa, umr yo'ldoshiga zulm qilishdan o'zini to'xtata olmaydigan yoshlar bo'lsa, ro'za tutishlari kerak. Shu yo'l bilan ular shahvatlarini bosadilar. Chunki ro'za tufayli kishining shahvati pasayib, boshqa jinsdagilarga shahvat bilan qaramaydigan, farjini zinoga ishlatmaydigan holga keladi. Oddiy holatlarda esa bu ikki xavfning oldini nikoh oladi. Nikoxdagi kishi o'z shahvatini halol yo'l bilan qondirganligi uchun, ko'zi nomahramlarga qarashdan tiyilgan, farji haromga yurishdan saqlangan bo'ladi. Rasululloh sollallohu alayhi vassallamning «Kim mening sunnatimdan yuz o'g'irsa, mendan emas» deganlari imkoni bo'la turib nikoxda bo'lmaslik, oila qurmaslik mo'min - musulmon uchun mutlaqo to'g'ri kelmasligini bayon etadi. Uylanmay, oila qurmay yurish musulmonlarga xos ish emas. Chunki Alloh taolo inson zotini yaratgan chog'ida erkakni ham, ayolni ham jinsiy rag'bat bilan yaratgan. Bu rag'bat inson uchun, uning baxt-saodati uchun, insoniyat kelajagi uchun kerakli narsadir. Bo'lmasa, Alloh taolo insonni bunday qilib yaratmas edi. Ana shu jinsiy maylni pok yo'l bilan qondirish zarur. Bu esa, shariy nikoh orqali amalga oshiriladi. Aksincha bo'lsa, turli noqulayliklar, zararlar kelib chiqadi. Uylanmay, oila qurmay, jinsiy maylni qondirmay yurish inson tabiatiga zid va zararlidir. O'zini jinsiy aloqadan olib qochgan kishilar o'z sog'likdariga zarar yetkazibgina qolmay, inson naslining qirqilishiga, dunyoning xarob bo'lishiga sabab bo'ladilar. Shuningdek, jinsiy maylini pok yo'l bilan emas, harom yo'l bilan qondirib yurganlar ham o'zlari va o'zгалar boshiga, butun insoniyat boshiga turli balo-ofatlar kelishiga sabab bo'ladilar. Shuning uchun ham Nabiy sollallohu alayhi vassallamning sunnatlariga amal qilib, nikoxda bo'lishga, halol-pok yo'l bilan oila qurishga harakat qilish kerak. Aks holda, u zot ning yo'llaridan boshqa yo'lda yurilgan hisoblanadi – deb fikr bildiriladi “Bahtiyor oila” kitobida.

Shuningdek, mazkur kitobda payg'ambarimizning sunnatlari haqida fikr bildirilib quyidagicha bayon etiladi:

Payg'ambar alayhissalomlarning sunnatlari bo'lgan to'rt narsa haqida so'z ketmoqda:

1. Hayo. Hayo insonni boshqa jonzotlardan ajratib tura digan ulug' sifatlardan biridir. Hayo insonga ziynat hisoblanib, u payg'ambarlarning hammalariga xos mushtarak sifat bo'lgan. Shuning uchun har bir mo'min hayoli bo'lishga harakat qilmog'i lozim.

2. Xushbo'y sepish. Xushbo'ylik kishiga zavq beradi, ochiq tabiatlilik, quvonch keltiradi. Xushbo'ylik inson tabiatiga ijobiy ta'sir etadigan narsadir. Islomda har bir narsaning xushbo'y bo'lishiga katta e'tibor beriladi, qo'lansa hidni yo'qotishga harakat qilinadi. Chunki bu Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlaridir.

3. Sivok. Sivok, ya'ni og'izni, tishni tozalab yurish barcha Payg'ambar alayhissalomlarning sunnatlari ekanini bilmog'imiz lozim. Bu ish ham har bir sof tabiatli inson uchun kerakli bo'lgan ishlardan. Shuning uchun ham uni Alloh taoloning o'zi Nabiylariga ravo ko'rgan.

4. Nikoh. Alloh taoloning barcha Anbiyo alayhissalomlarini birlashtirib turuvchi sunnatlardan yana biri nikohdir. Bu ish eng muqim sunnatlardan hisoblanmaganida Alloh taolo uni hamma Payg'ambarlariga ravo ko'rmas edi. Bu esa, o'z navbatida nikohga alohida ahamiyat berish lozimligini bildiradi. Hanafiy mazhabining eng yirik ulamolaridan bo'lgan Ibn Obidin rahimahulloh aytadilar: «Odam alayhissalomdan to qiyomatgacha ibodat qilib belgilangan hamda oxiratda jannatda ham davom etadigan amal ikkitadir: iymon va nikoh». Islomda nikohga targ'ib qilish bilan birga, undan bosh tortish qattiq qoralanadi.

Mazkur kitob tahlili shuni ko'rsatadiki, oilaviy munosabatlar, oilaning sofliigi va pokliigi, erkak va ayol munosabatidagi chegara bugungi tahlikali, oilaviy qadriyatlarga zarba berilayotgan zamonda juda ham muhimdir. Maqola yakunida Shayxning "Bahtiyor oila" kitobida keltirilgan jumlaning keltirib o'tish lozim deb hisoblayman:

Namoz qanchalik ahamiyatli ibodat ekanini, bu ulkan ibodatni ortga surish qanchalik yomon ish ekanini ham hamma yaxshi biladi. Shuningdek, janozani kechiktirmaslikka qanchalar ahamiyat berilishi ham hech kimga sir emas. Nikohni kechiktirmaslik

lozimligini o'sha muhim va ahamiyatli ikki ish bilan bir hadisda aytilishi ushbu ishning ahamiyati ham avvalgi ikkisidan qolishmasligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Bahtiyor oila". T.: "Hilol nashr" 2013.

2. Usmonaliyev I.M. [Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish masalalari va bugungi kundagi zarurati.](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hsELKTgAAAAJ&citation_for_view=hsELKTgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC)
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hsELKTgAAAAJ&citation_for_view=hsELKTgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC